ALISHER NAVOIY SHE’RIYATIDA QOSID OBRAZINING MOHIYATI

Nasrullayev Elmurod Jumabayevich
Filologiya fanlari doktori
Guliston davlat pedagogika instituti *professori,*
Gmail: nasrullayevelmurod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy mumtoz adabiyotimiz xususan, she’riyatida qosid timsoli qo‘llanilishining ildizi, adabiyotimiz xazinasidan o‘rin olgan she’riy asarlar muayyan bir sana bilan chegaralangan bo‘lishiga qaramay, ancha uzoqlarga borib taqalishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: Qosid, mumtoz, timsol, she’riyat, xabarchi, uyg‘onish davri, lirik qahramon, she’riy asarlar**.**

Navoiy g‘azaliyotining lirik qahramonlari haqida so‘z ketganda, asosan, oshiq va ma’shuqa obrazlaritilga olinadi. Haqiqatdanham, shoirning ishqiy mavzudagi g‘azallarida oshiq va ma’shuqaning turli holatlari yorqin bo‘yoqlarda tasvirlangan. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetov ta’kidlaganidek, “Navoiy ishqiy g‘azallarining yarmidan ko‘pi oshiqning ichki

kechinmalarini, uning hijron azoblarini, dard-alamlarini, orzu-armonlarinikuylashgabag‘ishlangan” [1, 123-b].

Navoiyning dunyoqarashi, ijod va go‘zallikka bo‘lgan estetik munosabati, falsafiy va filologik qarashlari, poetik mahorati, ijodiy metodi va uslubi, adabiy muhit bilan aloqasi va uning shoir faoliyatiga ta’siri o‘zbek va xorij olimlari tomonidan sermahsul o‘rganilgan. E.E.Bertels, Oybek, S.Ayniy, M.Shayxzoda, A.Qayumov A.Hayitmetov, N.Mallayev, A.Rustamov. S.Erkinov, T.Jalolov, Y.Ishoqov, A.Valixonov, A.Shomuhamedov, A.Hojiahmedov, S.G‘aniyeva, A.Mirzayev, S.Ivanov, Ali Asqar Hikmat, Rukniddin Humoyun Farrux, N.Komilov, I.Haqqul, M.Imomnazarov, M.Muhiddinov, Sh.Sirojiddinov, A.Erkinov, S.Olim kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari navoiyshunoslikka qo‘shilgan bebaho hissadir.

Milliy mumtoz adabiyotimiz xususan, she’riyatimiz xazinasidagi manbalar o‘rganilganida, qosid timsolini an’anaviy va azaliy timsollarsirasiga kiritish mumkinligiga amin bo‘ldik.

Dastlab she’riyatimizda sabo biror gul hidini atrofga sochuvchi timsol vazifasini bajargan. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida shunday misralarni o‘qiymiz:

Saba eli qo‘pti qaranful yidin,
Ajun barcha butru yipar burdi kin [2, 14-b].

Tabdili: *Chinnigul hidini yoyarkan sabo,*
Butun dunyo to‘ldi iporga go‘yo. (Bahor madhi)

Garchi, manbalarda xabarchi timsoli aynan qosid nomi bilan aytilmasa-da, *hudhud, sabo, nasim, roviy* timsollari ham qosid vazifasini bajaradi, ya’ni lirik qahramon – oshiq o‘zining ma’lum bir holatini ma’shuqasiga etkazish uchun yuqoridagi timsollarga murojaat etadi. Jumladan, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarining ikkinchi nomasida quyidagi baytda nasim shunday vazifani bajaradigan timsol sifatida gavdalanadi;

Salomim gulga elt, ey tong nasimi,
Kim erur Oy quli, Axtar nadimi [3, 18-b].

Baytni tahlil qilishdan oldin undagi “axtar”, “nadim” kabi tushunilishi qiyin so‘zlar qatorida “nasim” so‘zining ma’nosiga to‘xtalamiz: buning uchun yana “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ga murojaat qilamiz:

Nasim – tong shamoli, engil, yoqimli shabada.

Mazkur lug‘atda “axtar” va “nadim” so‘zlariga shunday ta’rif berilgan:

Axtar – 1.Yulduz. 2.Taqdir, qismat; baxt. 3.Yuz, jamol, chiroy, husn. 4.Bayroq, tug‘. 5.Manzil, makon; shu’la.

Nadim – 1. Xizmatkor, mahram. 2. Yaqin do‘st, hamsuhbat

Biz bu sharhlardan bayt mazmunidan kelib chiqib, har ikkala so‘zning birinchi ma’nolarini olamiz. U holda baytda lirik qahramon – oshiqning tong shamoliga murojaati tasvirlangani oydinlashadi, ya’ni lirik qahramon tong shamolini Oy quli, Axtar nadimi (yulduz mahrami) deb sifatlab, undan o‘z salomini gul – yorga etkazishini iltimos qilyapti. Unda nasim yorga xabar eltuvchi timsoli vazifasini bajarmoqda.

Gadoiyning *“Yana yoz bo‘ldi-yu, topti bo‘ston nash’u namo”* matla’li g‘azalida[4, 56-b] nasim – tong shamoli xabarchi timsolida keladi va shoir tomonidan ruhparvar deb ulug‘lanadi:

Yana yoz bo‘ldi-yu, topti bo‘ston nash’u namo,
Ey nasimi ruhparvar, xayra maqdam, marhabo.

Tabdili: *Yana yoz bo‘ldi-yu, bo‘ston yuksak huzur-hulovat topdi, ey ruhni parvarish qiluvchi tong eli, qadaming xayrli bo‘lsin, marhabo.*

Baytdan ko‘rinadiki, lirik qahramon tong shamolini ruhlantiruvchi, jon baxsh etuvchi deb bejiz ulug‘lamagan, chunki u, albatta, yordan biror xabar olib keladi. Shu sababli lirik qahramon unga qadami xayrli bo‘lishini tilab, yaxshi xabarlardan umid qilyapti.

Mumtoz adabiyotimizning yana bir yirik vakili Atoyi ijodidan boshlab she’riyatimizda qosid – xabarchi timsoliga murojaat qilish holatlari nisbatan ko‘proq uchraydi. Jumladan, Atoyining *“Ey Xudo, rahme sol ul jonu jahonim ko‘ngliga”* matla’li g‘azalida shunday misralarni o‘qiymiz:

Gul bikin jon ko‘nglakin yuz pora qildi xori hajr,
Tong eli, anglatqil oxir gulsitonim ko‘ngliga[5, 23-b].

Tabdili: *jonning gulga o‘xshash ko‘ylagini hajr tikani yuz pora qildi, ey tong eli, buni gulistonim – yorim ko‘ngliga anglatgin.*

Ko‘rinadiki, yor hajrdan bag‘ri yuz pora bo‘lgan lirik qahramon tong elidan bu xabarni ma’shuqasiga etkazishni, buni shunchakimas, balki ma’shuqaning ko‘ngliga etib boradigan darajada xabar qilishi lozimligini iltimos qilyapti.

Atoyining *“Nechakim dilbar meni kuydurdi hijron noridin”* matla’li g‘azalida ham yuqoridagiga o‘xshash tasvir bayonini ko‘rishimiz mumkin:

To sabo zulfung nasimin Chin elinda yoygali
Mushk savdosi kesildi shahri Chin attoridin[5, 23-b].

Ya’ni tong shabadasi ma’shuqa sochlaridan taraladigan muloyim ifor xabarini Chin (Xitoy) elida yoyganidan so‘ng u erlik attorlar uchun mushk savdosi kasodga uchradi.

Atoyi o‘z g‘azallarida *zulf (soch) nasimi* iborasini bir necha bor qo‘llaydi. Bu iboraning ma’nosini ochiqlaymiz: zulf – soch, nasim – tonggi engil shabada. *Zulf (soch) nasimi* iborasi *ma’shuqa zulfining muloyim ifori*ni ifodalash uchun uchun qo‘llangan.

Shuni qayd etish kerakki, shoir o‘z g‘azallarida bu iborani zulf nasimi shaklida ham, soch nasimi shaklida ham ishlatavergan. Jumladan, shoirning *“Ey begim, ushbu yuz degul, shams birla qamarmudur?”* matla’li g‘azalidan[5] olingan quyidagi baytda shu holni kuzatamiz:

Bodi sabo ki kelturur jong‘a soching nasimini,
Shahri Saboning elchisi hudhudi xushxabarmudur?

Ya’ni Sabo shahrining elchisi hudhud xushxabar keltirgani kabi tong shabadasi ma’shuqa sochiningmayin hidlarini jonga keltiryapti. Baytda tong shabadasi afsonaviy Sabo shahrining xushxabar keltiruvchi elchisi hudhudga o‘xshatilgan. Shu o‘rinda Sabo shahri diniy afsonalarga ko‘ra, Sulaymon payg‘ambar davrida yashagan qudratli malika Bilqisning poytaxti bo‘lganligini, Hudhud esa Sulaymon payg‘ambar va u targ‘ib qilayotgan yakkaxudolik e’tiqodi haqidagi xabarni eltuvchi qush timsoli sifatida Sharq, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalganligini qayd etib o‘tish lozim.

Xulosa qilib aytganimizda, mumtoz o‘zbek she’riyatida qosid timsoli qo‘llanilishining ildizi adabiyotimiz xazinasidan o‘rin olgan she’riy asarlar muayyan bir sana bilan chegaralangan bo‘lishiga qaramay, ancha uzoqlarga borib taqaladi. Buni yozma adabiyotimiz namunalarining nisbatan ancha yaqin davrlarga mansubligi bilan izohlash mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida esa qosid – xabarchi sifatida Oy, shamol yoki turli qushlar – g‘oz (chohda yotgan Alpomishdan Boysun eliga xabar olib keladi), mayna (Qoraxonga asirga tushgan Ravshan haqida ota-onasiga xabar keltiradi), kaptar va zag‘izg‘on (olahakka) timsollaridan foydalanilgan. Qishloqlarimiz xalqi orasida hali ham hovliga qo‘nib sayragan zag‘izg‘onni “Haak, xushxabar!” deb quvish odati saqlanib qolgan. Shuningdek, diniy asotir va afsonalarda to‘rt maloikalardan biri – Jabroil alayhissalom, shuningdek, Sulaymonning elchisi Hudhud kabi timsollar ham qosid – xabarchi sifatida gavdalangan.

Adabiyotlar

1. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. Toshkent, 1961. 123-bet.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent, Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2007, 14-b.
3. Xorazmiy. Muhabbatnoma. – www.ziyouz.com kutubxonasi, 18-bet.
4. To‘xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot-majmua. – Toshkent, Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2010.
5. Atoyi. Devoni shayxzoda Atoyi. – Toshkent, “Fan”, 2008, 23-b.
6. Rahim M. Xabar qahramonlariga murojaat qilish va she'riy mahorat //Yevropa xalqaro filologiya fanlari jurnali. – 2025. – T. 5. – No 03. – 12-16-betlar.